

7. Ружникова, О. М. Актуализация высказываний согласия в диалогическом дискурсе: автореф. дис. канд. филол. наук. – Архангельск, 2004. – 214 с.

8. <https://cyberleninka.ru/article/n/soglasie-i-nesoglasie-kak-tipy-rechevyh-aktov-v-angliyskoj-dialogicheskoy-rechi>

9. <https://cyberleninka.ru/article/n/kommunikativnye-smysly-soglasiya-i-sposoby-ih-verbalizatsii-v-russkom-yazyke>

## **TILSHUNOSLIKDA PUBLITSISTIK USLUBNING JANRLAR KESIMIDAGI KLASSIFIKATSIYASI. INTERVYU JANRI**

**Zarnigor JABBOROVA**  
*ADChTI Ingliz tili amaliyoti  
kafedrasida tayanch doktoranti*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada tilshunoslikda publitsistik uslubning janrlar kesimidagi klassifikatsiyasi tahlil qilinadi, bunda intervyu janri alohida o'rganiladi. Publitsistik uslub tili va uslubiy xususiyatlari, uning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinib, intervyu janrining o'ziga xos jihatlari va ularning lingvistik xususiyatlari yoritiladi. Intervyuning muloqot jarayonidagi roli, maqsad va vazifalari, hamda uning tili orqali etkaziladigan ma'lumotlarning uslubiy tahlili amalga oshiriladi.*

***Kalit so'zlar:** uslub, publitsistik uslub, janr.*

**Kirish.** Publitsistika bu zamon voqea va hodisalaridan zamon kishilarini xabardor qilish, shu kun uchun zarur masala va muammolarni tahlil etish va ularning yechilishi borasida jamiyatga ta'sir ko'rsatish vositasidir. Publitsistika zamonaviylik yilnomasi deb ataladi, chunki u hozirgi tarixni to'liq aks ettiradi, jamiyatning dolzarb muommolarini-siyosiy, ijtimoiy, madaniy, maishiy, falsafiy va boshqalarni hal qiladi. Publitsistika o'z mohiyatiga ko'ra hayotga faol aralashishga, jamoatchilik fikrini shakllantirishga mo'ljallangan [1,883].

Publitsistik matnlarda asosan *publitsistik uslub* keng qo'llaniladi. Publitsistik uslub XVIII asr o'rtalarida alohida uslub sifatida namoyon bo'la boshladi. Publitsistik uslubning alohida uslub sifatida ajratib turuvchi xususiyati jamoatchilik fikriga chuqur va doimiy ta'sir o'tkazish, berilgan ma'lumotni ta'lqin qilingan yagona to'g'ri izoh sifatida

ishontirishdan iboratdir. Xususan, ifodalangan fikrni dalillar bilan emas, balki hissiy ifodalar orqali ham qabul qilishga undashdir.

Publitsistik uslub adabiy tilning funktsional uslublari tizimida alohida o'rin tutadi, chunki u tilning ikkita funktsiyasini - axborot berish va ta'sir o'tkazishni birlashtiradi [2,507]. G.O. Vinokur publitsistik uslub namunalarini chuqur ma'lumotga egaligiga ishora qilgan. Shuning uchun ko'pgina mutahassislar tominidan publistik uslubni "ma'lumot stili" uslubi deb yuritiladi [3].

Proxorov tomonidan publitsistik uslub - murakkab va ko'p tomondan qarash mumkin bo'lgan bir jarayon, uni tadqiqot etish ko'plab aspektlarda olib borilishi mumkin, xususan: sotsiologiya, tarix, jurnalistika, adabiyotshunoslik. Eng ko'p o'rganiladigan aspektlaridan biri filologik aspektdir [4]. Publitsistik uslubning asosiy xususiyati shundaki, u ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo'lish, hozirjavoblik va ta'sirchanlik belgilari bilan ajralib turadi. Bu uslub ijtimoiy va siyosiy bilimlarni targ'ib qilish va keng ommaga yetkazish vositasi bo'lib, uning rang-barang tili orqali kishilar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bu uslubning yana bir muhim jihati qisqalikdir, ya'ni qisqa, lo'nda, tushunarli, yorqin va ixcham tilda yozish asosiy talablaridan biridir [5,22].

Jahon va o'zbek tilshunosligida ham bir qator olimlar tomonidan publistik uslubning tur jihatlari tadqiq etilgan va hanuzgacha jahon tilshunosligida dolzarb mavzu bo'lib kelmoqda. Sao Yuehua tomonidan publitsistik uslub, tilning yangi lingvistik hodisalarga eng tez va ta'sirli javob beruvchi, haqiqiy ravishda til foydalanishning eng namoyishchi tasvirini taqdim etadigan til qo'llanish sohasidir deb e'tirof etilgan. Bu filologlar o'rtasida katta va ehtiyotkor qiziqish uyg'otadi va doimiy va diqqat bilan tadqiq etilishini talab qiladi [6,14].

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** O'zbek matbuotiga publitsistik uslub XX boshlarida kirib kela boshladi. Bu uslub o'zbek adabiy tili sistemasiga "Turkiston viloyatining gazetasi" chiqa boshlashi, matbuot va nashriyot sohasiga bo'lgan e'tiborni orttishi, Furqat, Hamza, Ayniy, Sattorxon kabi shoirlar ijodida ushbu uslubga xos asarlarni yaratilishi publitsistikaning shakllanishiga turtki bo'ldi. O'zbek tilshunosligida

publisistik uslub T. Qurbonov tomonidan o'rganildi. Bu uslub ommaviy axborot vositalari, xususan, gazeta, jurnal, radio, televideniye materiallari uslubidir. Publitsistik uslubda muallifning voqeaga munosabati aniq namoyon bo'ladi. Muallif hayotiy masalalarni chuqur mulohaza yuritib tahlil qiladi, isbotlaydi, asoslab tushuntirishga urinadi, tinglovchini ishontiruchi detal va faktlar keltirish bilan kishida tasvirlanayotgan voqelikka salbiy yoki ijobiy munosabat tug'diradi, unga ta'sir etadi. Shuning uchun ham bu uslubda tilning barcha vositalaridan foydalanish mumkin [7].

**Muhokama va natijalar.** Publitsistik uslub shakliga ko'ra turlicha tasniflanadi. Dastavval publitsistik uslub namunalari yozma va og'zaki turga ajratiladi. Bu qaysi ommaviy axborot vositasida qo'llanish doirasini ham belgilab berishi mumkin. Publitsistik uslubning radio, televideniya ishlatiladigan ko'rinishi og'zaki ommabop uslub deyilsa, gazeta, jurnallarda ishlatiladigan ko'rinishi yozma ommabop uslub hisoblanadi. Publitsistik uslubning yozma va og'zaki ko'rinishlari o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lsada, ular publitsistik uslubning umumiy talablariga bo'ysunadi. Rus tilshunosligida gazeta materiallari janrlari bo'yicha aniq tasnifiga ega [8]. O'zbek tilshunosligida ham qator olimlar tomonidan publitsistik uslub tahlil etilgan va turlicha klassifikatsiya namunalari yaratilgan, ammo tan olish kerakki, ma'lum ta'sirlar natijasida klassifikatsiya janrlari miqdori o'zgarishi, bir janr boshqa janr tarkibiga qo'shilishi mumkin. An'anaviy ravishda, ma'lumot beruvchi janrlar, tahliliy janrlar va san'at-publitsistik janrlarga bo'linadi. Bu janrlar: ma'lumot beruvchi janrlar (yangilik, reportaj, intervyu, e'lon va boshqalar), tahliliy janrlar (maqola, retsenziya, izoh va boshqalar), san'at-publitsistik janrlar (essay, feleyton, pamflet va boshqalar) ga ajratiladi. S.Muhamedov gazeta publitsistikasi tarmog'i - gazeta publitsistikasi janri sifatida quyidagilarni ko'rsatgan: reportaj, hisobot, intervyu, korrespondensiya, maqola, sharh, obzor, taqriz, matbuot obzori, ocherk, felyeton, pamflet, lavha dan iborat.

Turli tilshunoslar tomonidan qilingan publitsistik uslubidagi janrlar klassifikatsiyasida xususan yuqorida berilgan klassifikatsiyalarda *intervyu* janri – ma'lumot beruvchi janr sifatida alohida e'tirof etiladi. *Intervyu* ommaviy kommunikatsiyaning tez suratda rivojlanayotgan shakllaridan biridir.

Intervyu mohiyatan so'rab bilish va uni auditoriyaga yetkazishni maqsad qiladi. Mazkur janr ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini keng va chuqur yoritishga xizmat qilib, tezkor va ishonchli, aniq axborotlarni auditoriyaga yetkazish vazifasini bajaradi. Intervyuda, eng avvalo, mavzu masalasi alohida o'rin tutadi. Ya'ni u orqali yoritilayotgan mavzu jamiyat uchun dolzarb bo'lishi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi, o'quvchilarning qiziqishini uyg'ota olishi kerak. Intervyu - bu voqea yoki muammo haqida ko'proq ma'lumot olish uchun o'tkaziladigan tekshiruv. Intervyu, ommaviy muloqotning eng keng tarqalgan turlaridan biri sifatida o'z o'rnini va ahamiyatiga ega. Intervyu janri o'ziga xos xususiyatlari sababli media diskurslarda intervyu janrining lingvistik jihatdan tadqiq etish medialingvistikaning dolzarb masalalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Intervyu janri jamoatchilik fikri, qarashlari va sodir bo'layotgan hodisalarga munosatini shakllantirishga asos bo'luvchi samarali vositadir.

**XULOSA.** Intervyu janri publisistik uslubning eng ko'p ishlatiladigan va e'tibor qaratiladigan qismlaridan biridir. Ushbu janr o'qituvchilar, tadqiqotchilar va obrochilar uchun muhimdir, chunki u turli mavzular bo'yicha ma'lumot olish va ulardan foydalanish imkoniyatini beradi. Maqbul dalillar, izohlar va obro'lar intervyu janridagi mohiyatning asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Shuningdek, intervyu janri maqola yozuvchilari uchun ma'lumotni ifodalash, tahlil qilish va o'qitishning asosiy vositasi sifatida faol ishlatiladi. Publisistik uslub, turli sohalar bo'yicha muhokama va ta'riflashda asosiy vosita sifatida ishlatiladi. Intervyuning matni, obrochining so'zlarida jamiyatdagi mohiyatni tushunishga imkon beradi. Ular intervyuni muhokama, izohlar bilan bog'liq sahifalarini o'qish orqali, maqbul dalillarga asoslanadi. Shuningdek, intervyu janri publisistik uslubning klassifikatsiyasidagi jamiyat hayotiga ta'sir o'tkiza oluvchi, ma'lumot beruvchi kabi bir qator xususiyatlari bilan alohida o'rin egallagan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Madaminova G.M. Publisistika va uning zamonaviy tilshunoslikdagi ahamiyati//Journal of universal science research.883-891

2. Калугина Ю. В. Медиа-текст экономического кризиса как разновидность публицистического стиля // фундаментальные исследования. Издательский Дом «Академия Естествознания» (Пенза). — 2013. — № 4–2. — С. 507–51
3. Винокур Г.О.. Публицистический стиль и его функционирование, Бикмуканова С. И. Искаировна, Оренбургский государственный педагогический Университет, г. Оренбург.
4. Прохоров Е.П. Публицист и действительность. — М., 1973
5. Sohaga oid o'zbek tili. Toshkent – 2021. 22-bet.
6. Цао, Юэхуа. "Эволюция Газетно-Публицистического Стиля на Рубеже XX-XXI вв. (Лексический Аспект)." Автореферат, Московский педагогический государственный университет, Москва, 2004, р. 14.)
7. O'zbek tili uslubiyati masalalari. Imonov M. Nu'monov T., Voboхonova D. «Namangan» nashriyoti 2007.
8. Гребенина А.М. Обзор печати: Некоторые прблемы теории жанра. - М.,1980.
9. Блажов Е.А. Газетные жанры в экономической пропаганде. - М.,1974.
10. Пельт В.Д. Диф-ференциация газетных жанров. - М.,1984.
11. Информационные жанры газетной публицистики: Хрестоматия. - М.,1986.
12. Аналитические жанры газеты: Хрестоматия - М., 1989.

## **INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNI AKS ETTIRUVCHI MAQOLLAR REPREZENTATSIYASI**

***Shohista YADGOROVA***

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)  
ixtisosligi 1-bosqich magistranti*

***Annotatsiya.*** Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida shaxslararo munosabatlarni aks ettiruvchi maqollar reprezentatsiyasiga bag'ishlanadi. Shaxslararo munosabatlarni yoritib berishda ingliz va o'zbek tillaridagi ota-ona va farzand, do'stlik haqidagi maqollardan foydalaniladi. Maqolada shaxslararo munosabatlarni ifodalovchi ingliz va o'zbek maqollarining umumiy va farqli jihatlari tahlil qilinadi.

***Kalit so'zlar:*** maqol, shaxslararo munosabat, ota-ona, farzand, do'stlik.